| <b>Абдуллаев Шахобиддин Шамсиддинович</b>                                                                                                                          |     |
| REDUCTION OF GREENHOUSE GAS EMISSIONS: EMISSION QUOTAS OR MANDATORY CONTROL TECHNOLOGIES .....                                                                     | 633 |
| <b>Bobonov Doston Abdumo'min o'g'li, Qozoqboyev Jasur Abduvali o'g'li</b>                                                                                          |     |
| AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....                                                     | 637 |
| <b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>                                                                                                                              |     |
| ПОЛУЧЕНИЕ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОГО ЦЕМЕНТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ.....                                                                       | 643 |
| <b>Арипова Мастура Хикматовна, Ташбаев Джахангир Назим угли</b>                                                                                                    |     |
| МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ГОРЕЛОК И ИССЛЕДОВАНИЕ ИХ ТЕПЛОВОЙ НАГРУЗКИ .....                                                                                       | 652 |
| <b>Ражабов Азамат Тоирович</b>                                                                                                                                     |     |
| QISHLOQ XO'JALIK TEXNIKALARI MARKETINGI VA UNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....                                                                                 | 658 |
| <b>Xolmirzayev Bobur Mansurovich</b>                                                                                                                               |     |
| ПРИМЕНЕНИЕ СУБСИДИАРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ АНКРОТСТВА: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ВОЗМОЖНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....                               | 663 |
| <b>Хамзина Динара Рашатовна</b>                                                                                                                                    |     |
| YASHIL REKREATSION TURIZM KONSEPSIYASINI JORIY ETISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI.....                                                                               | 669 |
| <b>Baxriyeva Zarina Nasimovna</b>                                                                                                                                  |     |
| KORXONALARDA DIVERSIFIKATSIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA IQTISODIY MEKANIZMLARINING O'RNI .....                                                                   | 672 |
| <b>Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich</b>                                                                                       |     |
| QALINLIGI 2 MM BO'LGAN TASMALI LISTLARNI SOVUQ HOLATDA PROKATLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH .....                                                       | 679 |
| <b>Yusupov Abdulaziz Abdullajanovich, Saydumarov Botir Muradovich, Arslonov Asadbek G'aybulla o'g'li</b>                                                           |     |
| HUDUDIIY TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI MUHANDISLIK INSHOOTLARI KOMPLEKSINI LOYIHALASH VA QURISH JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH.....                               | 682 |
| <b>Zikrayev Akmaljon Alimovich</b>                                                                                                                                 |     |
| TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLARNI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                                                   | 688 |
| <b>Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi</b>                                                                                                                |     |
| "MIKROSIMULYATSION MODELLAR" VA ULAR YORDAMIDA IQTISODIY SIYOSATGA OID QARORLARNING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA TA'SIRINI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....               | 694 |
| <b>Mualliflar Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Raxmonov Doniyor Ixtiyorjon o'g'li, Ortiqova Niginabonu Alisher qizi, Raxmonov Jo'rabek Hamroyevich</b>              |     |
| MINTAQADA SANOAT KORXONALARI TUZILMAVIY KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA TAMOIYILLARI.....                                                                                 | 702 |
| <b>Jabborov Elbek Erkin o'g'li</b>                                                                                                                                 |     |
| MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA TARTIBGA SOLISH .....                                                                                                                  | 707 |
| <b>Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich</b>                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| SMART SOATLAR YORDAMIDA BEMORLAR SALOMATLIGINI NAZORAT QILISH.....                                                   | 712 |
| <i>Alimqulov Nurmuhhammad Muqumjon o'g'li, Eraliyev Humoyun Ma'mirjon o'g'li, Madaminova Mahliyo Bahodirjon qizi</i> |     |
| PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI .....                                              | 718 |
| <i>Sherjonov Doniyor Sapparbayevich</i>                                                                              |     |
| TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH IMKONIYATLARINI<br>BAHOLASH.....                                 | 722 |
| <i>Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich</i>                                                                                   |     |
| MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING AHAMIYATI .....                                           | 726 |
| <i>Sultonov Baxtiyor Baxodirovich</i>                                                                                |     |
| UCH FAZALI IKKI CHULG'AMLI MOYLI TRANSFORMATORLARNING ISSIQLIK HISOBINI<br>MODELLASHTIRISH VA TADQIQ QILISH .....    | 731 |
| <i>Taniyev Mirzoxid Xurramovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Omonboyev Dilrux Nuraddin o'g'li</i>              |     |
| ERKIN IQTISODIY ZONALARNING RIVOJLANISHI BOSQICHLARI .....                                                           | 736 |
| <i>Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.</i>                                                                    |     |
| MOLIYAVIY INKLYUZIYANING IJTIMOIIY TABAQALANISHGA TA'SIRINING NAZARIY<br>JIHATLARI.....                              | 740 |
| <i>Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li</i>                                                                       |     |
| ВОПРОСЫ ТРАНСФОРМАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ<br>К МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА ..... | 746 |
| <i>Муҳидинов Аюббек Нуритдинович</i>                                                                                 |     |
| РОЛЬ КОЛЛЕКТОРНО-ДРЕНАЖНЫХ СИСТЕМ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ .....                                                         | 753 |
| <i>Жангабаев Данияр Мансурович, Хожамуратова Роза Тажимуратовна</i>                                                  |     |
| ASSESSMENT OF ESG INDICES OF PRESTIGIOUS HOTELS IN UZBEKISTAN .....                                                  | 759 |
| <i>Saidova Madina Xayrullo qizi</i>                                                                                  |     |
| FISKAL SIYOSATDA MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY<br>INSTRUMENTLARI .....                    | 765 |
| <i>Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li</i>                                                                      |     |
| TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINING<br>XORIIY TAJRIBASI.....                    | 771 |
| <i>Jabbarov Nodir Umirovich</i>                                                                                      |     |
| AKSIZ SOLINISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TA'SIRI .....                                                                 | 775 |
| <i>Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna</i>                                                                           |     |
| O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA UNI<br>RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....          | 781 |
| <i>Shavkat Djumaniyazov</i>                                                                                          |     |
| EKISHDA CHIGITNI BIR XIL TARQATISH VA OPTIMALLASHTIRISH USULLARI.....                                                | 787 |
| <i>Imomov Shavkat Jaxonovich, Nuritov Ikrom Rajabovich, Babamuradov Anvar Baxtiyorovich</i>                          |     |
| KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL TIZIMINI<br>JORIY ETISH .....                      | 790 |
| <i>Akbarov Akramjon Ibroximjonovich</i>                                                                              |     |
| INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTYERIYA HISOB VA AUDITINI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....                        | 793 |
| <i>Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li</i>                                                                                |     |
| INTELLIGENT SYSTEM FOR MONITORING AND MANAGEMENT OF THE VEGETABLE OIL<br>REFINING PROCESS .....                      | 798 |
| <i>Ortiqov Elbek Elmirza o'g'li</i>                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTONDA KREATIV INDUSTRIYA VA EVENT-MENEJMENTNING HUQUQIY-ME'YORIY<br>ASOSLARI.....                            | 806 |
| <i>Shaxabatdin Maxamatdinov Isak uli</i>                                                                             |     |



|                                                                                                                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| РОЛЬ И РАЗВИТИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ<br>МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ.....                                                                           | 812 |
| Wang Jianhong, Норов Улугбек Ирискулович                                                                                                                                        |     |
| FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA YORDAMCHI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONLARI HISOB<br>VA YORDAMCHI MAHSULOTLAR TANNARXINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....                        | 816 |
| Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna                                                                                                                                                 |     |
| XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARINI<br>STRATEGIK BOSHQARUV HISOB DOIRASIDA SHAKLLANTIRISH VA ULARNING HOLATINI<br>TAHLIL QILISH .....         | 821 |
| Hamroyeva Zuhra Amiral qizi                                                                                                                                                     |     |
| К ВОПРОСУ РАСЧЕТА МОЩНОСТИ, НЕОБХОДИМОЙ ДЛЯ РАЗОГРЕВА КРОМОК ТРУБНОЙ<br>ЗАГОТОВКИ ДО ТЕМПЕРАТУРЫ СВАРКИ .....                                                                   | 825 |
| Заиркулов Элёр Ёкубжон ўғли                                                                                                                                                     |     |
| TEKNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARI .....                                                                                                      | 830 |
| Bekishev Allabergen Yergashevich, Hamadulloyev Diyorbek Hasanboy o'g'li                                                                                                         |     |
| ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL AND GOVERNANCE) TAMOIYILLARINING IQTISODIY<br>RIVOJLANISH VA KORPORATIV FAOLIYATGA TA'SIRI: MAKRO VA MIKRO DARAJADAGI<br>TAHLIL .....                | 834 |
| Murtozayev Sardorbek Abdijalil o'g'li                                                                                                                                           |     |
| TESTING THE STATISTICAL SIGNIFICANCE OF DYNAMIC MODELS IN ECONOMICS .....                                                                                                       | 838 |
| Muradov Rustamjon Sobitkhonovich                                                                                                                                                |     |
| REAL IQTISODIY DAVRLAR NAZARIYASI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TADQIQOTLARDA<br>FOYDALANISH.....                                                                                     | 843 |
| Rustamov Narzillo Istamovich                                                                                                                                                    |     |
| РАСЧЕТ РАСТЯЖЕНИЯ ДРЕВЕСИНЫ И ДЕРЕВЯННЫХ КОНСТРУКЦИЙ ИЗ МЕСТНЫХ<br>ДРЕВЕСНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПОД ДИНАМИЧЕСКИМИ НАГРУЗКАМИ.....                                                       | 848 |
| Юнусалиев Эльмурод Мухаммадьякубович, Ташпулатов Илхомжон Бахтиёрович                                                                                                           |     |
| ЦИФРОВИЗАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО<br>ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ФОНДОВОГО РЫНКА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ<br>И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА ..... | 854 |
| Евгений Юрьевич Шек                                                                                                                                                             |     |
| ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ И<br>ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....                                                           | 860 |
| Шодмонов Қобилжон Қахрамон ўғли                                                                                                                                                 |     |
| AGRAR IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK<br>ASOSLARI.....                                                                                         | 870 |
| Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi, Ibrohimova Muazzam Muhammadjon qizi                                                                                                        |     |
| XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI<br>FOYDALANISH VA BU BORADAGI MUAMMOLAR .....                                                                | 873 |
| Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich                                                                                                                                             |     |
| ДАТЧИКИ ИНТЕРНЕТА ВЕЩЕЙ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЛЯ МОНИТОРИНГА ТЕПЛИЧНЫХ<br>КОМПЛЕКСОВ .....                                                                                        | 878 |
| Самадов Эльёр Эркинович                                                                                                                                                         |     |
| МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ ЭКСКАВАТОРНО-АВТОМОБИЛЬНОГО КОМПЛЕКСА<br>КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ НА ОТКРЫТЫХ ГОРНЫХ<br>РАБОТАХ .....                                  | 884 |
| Аннакулов Тулкин Жовбекович, Нормонов Шамсиддин Нураддинович                                                                                                                    |     |
| ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ<br>И ПРОИЗВОДСТВАМИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ .....                                                              | 892 |
| Гулямов Шухрат Манапович                                                                                                                                                        |     |





|                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH .....                                 | 896 |
| <i>Xonimqulov Islom Ergash o'g'li</i>                                                                                               |     |
| XIZMAT KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....              | 901 |
| <i>Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich</i>                                                                                       |     |
| THE HIDE AND SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN .....                                                                                     | 905 |
| <i>Koshanov Abdimurat Azat uli, Abdimuratova Altingul Kalbayevna</i>                                                                |     |
| SHAHAR AGLOMERATSIYALARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....                                                                 | 910 |
| <i>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</i>                                                                                         |     |
| MOL-MULK SOLIG'I HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                               | 914 |
| <i>Sh.M.Ergashev</i>                                                                                                                |     |
| HUDUDLARDA QURILISH OBYEKTLARINI QURILISH MATERIALLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....                               | 918 |
| <i>Najimov Iskander Perdebayevich</i>                                                                                               |     |
| TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING BOSQICHLARI.....                                            | 922 |
| <i>Tajekeev Ziyatdin Kobeytinovich</i>                                                                                              |     |
| МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЗАТРАТАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА .....                                       | 927 |
| <i>Минутдинова Лилия Тагировна</i>                                                                                                  |     |
| МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ .....    | 934 |
| <i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>                                 |     |
| HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI .....                                                             | 939 |
| <i>Xamroqulov M.J.</i>                                                                                                              |     |
| UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....                                       | 944 |
| <i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>                                                                                                    |     |
| YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....                                             | 949 |
| <i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>                                                                                                  |     |
| KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV .....                                          | 953 |
| <i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>                                                                                           |     |
| КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ .....                                                                      | 958 |
| <i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>                                                                                                   |     |
| TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....                                       | 963 |
| <i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>                                                                                                |     |
| ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ .....                               | 969 |
| <i>Абралов Музаффар Махмудович</i>                                                                                                  |     |
| РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ .....                           | 975 |
| <i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>                                                                                           |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....             | 979 |
| <i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>                                                                                           |     |
| OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI ..... | 984 |
| <i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>                                                                                          |     |



|                                                                                                                                                                                              |      |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....         | 989  |
| <b>Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova</b>                                                                                                                                                    |      |
| TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....                                                                                   | 994  |
| <b>Raximov Xasan Shukurjonovich</b>                                                                                                                                                          |      |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....                                                                                                     | 1000 |
| <b>Yuldashev Doniyor Tairovich</b>                                                                                                                                                           |      |
| PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI .....                                                                                   | 1005 |
| <b>Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich</b>                                                                                                                      |      |
| MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....                                                                                        | 1011 |
| <b>Axmedova Xumora Ibroxim qizi</b>                                                                                                                                                          |      |
| ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH ..... | 1015 |
| <b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>                                                                                                                                                    |      |
| KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI .....                                                                                                                  | 1026 |
| <b>Karimova Nilufar Sadriddin qizi</b>                                                                                                                                                       |      |
| ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....                              | 1030 |
| <b>Садыков Жахонгир Насырджанович</b>                                                                                                                                                        |      |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI .....                                                                                                     | 1039 |
| <b>Boltayev Umidjon Talant o'g'li</b>                                                                                                                                                        |      |
| ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ .....                                                                                 | 1044 |
| <b>Мухамедханов Улугбек Тургудович</b>                                                                                                                                                       |      |
| MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI .....                                                                                                           | 1049 |
| <b>Qodirov Farrux Ergash o'g'li</b>                                                                                                                                                          |      |
| TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH .....                                                                                            | 1054 |
| <b>Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li</b>                                                                                                                                             |      |
| ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ .....                                                                                              | 1059 |
| <b>Абдуллева Камола Рустамовна</b>                                                                                                                                                           |      |
| MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI .....                                                                      | 1065 |
| <b>A.Xakimov, X.Xakimov</b>                                                                                                                                                                  |      |
| ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ .....                                                         | 1073 |
| <b>Касымова Нозима Омиловна</b>                                                                                                                                                              |      |
| OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIY TAJRIBASI .....                                                                                                       | 1077 |
| <b>Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich</b>                                                                                                                                                       |      |



|                                                                                                                                                |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH<br>MASALALARI.....                                                       | 1082 |
| <b>Saidova Sevara Abdimumin qizi</b>                                                                                                           |      |
| TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY<br>JIHATLARI.....                                                          | 1089 |
| <b>Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich</b>                                                                                                   |      |
| RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR<br>VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....                          | 1094 |
| <b>Umurzak Ablakulovich Radjabov</b>                                                                                                           |      |
| FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR<br>TADRIJI .....                                                              | 1101 |
| <b>Zakirova Oisha Vohid qizi</b>                                                                                                               |      |
| AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR<br>TAJIRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI ..... | 1109 |
| <b>Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li</b>                                                                                                         |      |



# AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJIRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI



**Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li**

TDSHU tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0002-2722-3231

E-mail: shohruh\_mardonov@tsuos.uz

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aglomeratsiyalarni boshqarish organi uchun konseptual strukturani shakllantirish bo'yicha takliflar yoritilgan. Bunda xorijiy tajriba chuqur tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan boshqaruv konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Hozirgi amaliyotda qo'llanilayotgan konsepsiyalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar ilmiy asoslangan holda taqdim etilgan. Globallashtirish jarayonida mintaqaviy boshqaruv elementlari tobora murakkablashib borayotganligi sababli mazkur mavzuni chuqurroq o'rganish zarur.

**Kalit so'zlar:** aglomeratsiya, urbanizatsiya, konsepsiya, boshqaruv, shaharlashish, iqtisodiyot, mintaq iqtisodiyoti.

**Abstract.** This article discusses proposals for the formation of a conceptual framework for agglomeration governance bodies. In this context, foreign experience is thoroughly analyzed, and proposals are put forward for developing a governance concept adapted to the conditions of Uzbekistan. Scientifically grounded additions and amendments to the concepts currently applied in practice are presented. In the context of globalization, as elements of regional governance become increasingly complex, there is a need for a deeper study of this issue.

**Keywords:** agglomeration, urbanization, concept, governance, urban development, economy, regional economy.

**Аннотация.** В статье рассматриваются предложения по формированию концептуальной структуры органа управления агломерациями. При этом зарубежный опыт подвергнут глубокому анализу, а также выдвинуты предложения по разработке концепции управления, адаптированной к условиям Узбекистана. Дополнения и изменения к действующим на практике концепциям представлены на научно обоснованной основе. В условиях глобализации, когда элементы регионального управления становятся всё более сложными, возникает необходимость более глубокого изучения данной проблематики.

**Ключевые слова:** агломерация, урбанизация, концепция, управление, градостроительство, экономика, региональная экономика.

## KIRISH

Ma'lumki, bugungi kunda Toshkent shahri va unga tutash hududlarni o'z ichiga qamrab olgan Toshkent aglomeratsiyasida jadal urbanizatsiya jarayonlari kuzatilmoqda. Tabiiy va mexanik o'sish ta'sirida aholi sonining muttasil ortib borishi, transport oqimining kuchayishi, yangi uy-joylar qurilishi hajmining kengayishi hamda sanoatning rivojlanishi ekologiya, transport, shaharsozlik va investitsiya muhiti sohalarida o'zaro bog'liq masalalar majmuasini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur jarayonlarning muhim omillaridan biri boshqaruv tizimining takomillashtirilishini taqozo etadi. Amaldagi boshqaruv tizimida transport, ekologiya, qurilish va ma'muriy hududlar — shahar hamda tumanlar



alohida faoliyat yuritmoqda. Bu esa ularning o'zaro muvofiqlashtirilgan holda ishlashini kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi. Xususan, shahar va shahar atrofi transport marshrutlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, yagona chipta tizimini joriy etish, tirbandliklarni kamaytirish, yashil hududlarni kengaytirish, havo va suv sifatini yaxshilash, chiqindilarni samarali boshqarish kabi masalalar aglomeratsiya miqyosida yagona shaharsozlik rejasini ishlab chiqish va infratuzilma obyektlaridan oqilona foydalanishni talab etadi. Shuningdek, hududlarni kompleks rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, transport, ekologiya, qurilish va investitsiya jarayonlari integratsiyalashgan holda boshqariladigan, Toshkent aglomeratsiyasining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qodir yagona va vakolatli boshqaruv organining konseptual tuzilmasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aglomeratsiyalarni boshqarish bo'yicha jahon tajribasi ko'plab mutaxassislar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Xususan, Jack Brownning London's "Mayor at 20: Governing a Global City in the 21st Century" asari London meriyasi faoliyatining 20 yilligiga bag'ishlangan bo'lib, unda Buyuk London Ma'muriyati (GLA) ning transport va uy-joy sohasidagi vakolatlari uch nafar mer — Livingston, Johnson va Khan davrlarida qanday amalga oshirilgani batafsil yoritilgan [1].

Vuchik Parij va uning boshqaruv tizimini metro, shahar atrofi poyezdlari (RER) hamda avtobuslar o'rtasidagi muvozanatli integratsiyaning samarali namunasi sifatida baholab, bunday tizimlarning amal qilish tamoyillarini izohlaydi [2].

Rossiyalik mutaxassis A. Rijikovning nashr va asarlarida xalqaro institutlar, jumladan, I D F M moliyalashtirish tizimi (fransuz kompaniyalari tomonidan to'lanadigan transport solig'i) hamda transport tizimini muvozanatli boshqarish tajribasi chuqur tahlil qilingan [3].

Shu bilan birga, O'zbekistonda aglomeratsiyalarni boshqarish bo'yicha jahon tajribasini iqtisodiy adabiyotlar asosida tizimli o'rganish va umumlashtirish bo'yicha izlanishlarni yanada faollashtirish zarurati mavjud.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, aglomeratsiyalar uchun yagona boshqaruv tuzilmasining mavjudligi ularni samarali boshqarish hamda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Katta London ma'muriyati (Greater London Authority) tajribasi alohida e'tiborga molikdir. Ushbu tuzilma London uchun strategik mintaqaviy boshqaruv organi bo'lib, uning faoliyati hududiy rejalashtirish, iqtisodiy rivojlanish, transport, politsiya faoliyati, yong'in xavfsizligi, ekologiya hamda favqulodda vaziyatlarni boshqarish kabi muhim yo'nalishlarni qamrab oladi.

Katta London 32 ta ma'muriy-hududiy birlik (boro) va London Siti o'z ichiga oladi hamda London meri va 25 kishidan iborat Assambleya tomonidan boshqariladi. Shundan 12 ta boro va London Siti ichki Londonni, qolgan 20 ta boro esa tashqi Londonni tashkil etadi.

London meri va Assambleya saylov asosida shakllantiriladi, Katta London ma'muriyati esa doimiy faoliyat yurituvchi ijro etuvchi tuzilma hisoblanadi. Ma'muriyatning moliyaviy asosi Buyuk Britaniya budjetidan ajratiladigan mablag'lar hamda munitsipal soliqlar hisobidan shakllanadi. Uning faoliyati strategik yondashuvga asoslanib, asosiy ustuvor yo'nalishlar 2004-yilda qabul qilingan 2031-yilgacha mo'ljallangan London rejasida belgilab berilgan.

Katta London ma'muriyati yagona rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini muvofiqlashtirish hamda boshqaruvning shaffofligini ta'minlash orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Aglomeratsiyalar faoliyati samaradorligini yuksaltirishda Fransiyaning transport sohasidagi tajribasi ham muhim ahamiyatga ega. Parij va unga tutash hududlarni qamrab olgan Île-de-France Mobilités davlat organi 12 milliondan ortiq aholiga ega butun aglomeratsiya uchun yagona transport siyosatini belgilaydi, tariflarni o'rnatadi va metro, RER (shahar atrofi elektrlashtirilgan poyezdlari), avtobus, tramvay hamda poyezdlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu tashkilot transport tizimini bevosita boshqarmasdan, balki RATP (Parij jamoat transporti kompaniyasi) va SNCF (Milliy temir yo'l kompaniyasi) kabi operatorlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, chipta sotuvini tashkil etadi hamda marshrutlar bo'yicha axborotni real vaqt rejimida taqdim etadi.



Île-de-France Mobilitésning tirbandliklarni kamaytirish borasidagi yondashuvi Toshkent aglomeratsiyasi uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi yo'l harakatini cheklash emas, balki aholining avtomobildan jamoat transporti, velosiped va piyoda harakatlanish kabi kamroq joy egallaydigan hamda atrof-muhitga kam zarar yetkazadigan transport turlariga o'tishini rag'batlantirishdan iboratdir.

Tirbandliklarni kamaytirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- jamoat transportini rivojlantirish;
- faol transport turlarini rag'batlantirish;
- hamkorlikda harakatlanish va yo'llardan samarali foydalanish;
- yuk tashishni optimal tashkil etish.

Jamoat transportini rivojlantirish tirbandliklarning oldini olishda eng samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda Île-de-France Mobilités RER va metro liniyalarini kengaytirish hamda ularning o'zaro muvofiqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. RER tizimi avtomobil yo'llariga muqobil sifatida yuqori harakat tezligini ta'minlab, shahar atrofi stansiyalaridan Parij markazigacha bo'lgan masofani kam to'xtashlar bilan bosib o'tish imkonini beradi. Bu esa yo'lovchilarni avtomobildan ko'ra poyezddan foydalanishga undaydi va natijada yo'llardagi yuklama kamayadi. RER liniyalarining aksariyati avtomobil yo'llaridan ajratilgan bo'lib, bu ularga tirbandliklardan qat'i nazar, belgilangan jadval asosida barqaror harakatlanish imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, RER liniyalari Parij markazida chuqur yerosti tunnellari orqali birlashtirilgan. Poyezdlar markaziy hududga kirganda yer ostiga tushadi. Bu esa yo'lovchilarni shaharning eng gavjum hududlarida ham samarali taqsimlashga xizmat qilib, shahar ko'chalaridagi ortiqcha yuklama va tirbandlikni kamaytiradi. RER va Parij metrosi o'rtasida integratsiyalashgan stansiyalarning mavjudligi yo'lovchilarga transport turini osonlik bilan almashtirish imkonini beradi, bu esa shaxsiy avtomobildan foydalanish ehtiyojini sezilarli darajada qisqartiradi. RER tizimi, ayniqsa eng yuqori yuklama davrlarida (ertalab va kechqurun), poyezdlarning yuqori chastotada harakatlanishini ta'minlaydi. Bunday yondashuv yo'lovchilarning vokzallarda to'planib qolishining oldini olib, tizimning barqarorligi va ishonchliligini oshiradi.

RER liniyalarida, xususan RER A yo'nalishida, katta sig'imga ega ikki qavatli poyezdlardan (double-decker) foydalaniladi. Bu har bir poyezdda ko'proq yo'lovchini tashish imkonini berib, yo'lovchi oqimining keskin ortishi davrlarida ham transport tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

Parij atrofidagi tashqi stansiyalar yaqinida avtomobillarni qoldirib, poyezdga o'tish uchun yirik avtoturargohlar (Park and Ride) tashkil etilgan. Ushbu tizim shahar atrofida yashovchi aholiga avtomobilini tashqi hududda qoldirib, tezkor poyezd orqali markazga kirish imkonini beradi. Natijada shahar markaziga yo'naltirilgan avtomobil oqimi kamayadi va yo'llardagi yuklama yengillashtiriladi.

Tirbandliklarni kamaytirishning yana bir muhim yo'nalishi qisqa masofalarda piyoda va velosipedda harakatlanishni rag'batlantirishdan iborat bo'lib, Île-de-France Mobilités velosiped yo'llarini kengaytirish va ularning xavfsizligini oshirish, stansiyalar yaqinida velosipedlar uchun yetarli va himoyalangan to'xtash joylarini (jumladan, Véligo Location xizmati) ko'paytirish, jamoat hududlarini rejalashtirishda piyodalarga ustuvorlik berish hamda qulay piyodalar yo'laklarini yaratishga alohida e'tibor qaratadi.

Île-de-France Mobilités tirbandliklarni kamaytirishning zamonaviy usullarini joriy etishga ham katta ahamiyat bermoqda. Xususan, karpuling (Covoiturage) dasturlarini rivojlantirish va rag'batlantirish yo'llardagi avtomobillar sonining qisqarishiga xizmat qilib, transport tizimi samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, jamoat transporti uchun alohida yo'laklar ajratish va svetoforlarni avtobuslarga ustuvorlik beradigan tarzda sozlash orqali ularning harakat tezligini oshirish ham tirbandliklarni kamaytirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.


Bundan tashqari, Île-de-France Mobilités yuk tashishni optimallashtirish va logistika tizimini rivojlantirishga, jumladan, eng so'nggi manzilga yetkazishda (last-mile delivery) avtomobil transportidan tashqari daryo va temir yo'l kabi muqobil transport turlaridan foydalanishni kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratadi.

Yuqorida keltirilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, aglomeratsiyalarni yagona boshqaruv organi orqali muvofiqlashtirish resurslardan samarali foydalanish, aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda aglomeratsiyaning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan Toshkent aglomeratsiyasi uchun yagona boshqaruv tizimini tashkil etish maqsadga muvofiqdir (1-rasm). Mazkur tuzilmani O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mustaqil agentlik sifatida shakllantirish hamda uning qarorlarini aglomeratsiya hududidagi barcha mahalliy hokimiyat organlari va idoralar uchun majburiy etib belgilash taklif etiladi.

Yagona aglomeratsiya boshqaruvini moliyalashtirish manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va mahalliy byudjet mablag'lari, xalqaro grantlar va kreditlar, davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan olinadigan tushumlar, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar ko'zda tutilishi mumkin.

Yagona boshqaruv organi professional shahar menejeri (urbanist) sifatida faoliyat yurituvchi Boshqaruv raisi hamda tarkibiga Toshkent shahri hokimi, Toshkent viloyati hokimi va tegishli vazirliklar — Transport, Ekologiya, Qurilish va Investitsiyalar vakillari kiradigan Boshqaruv kengashi tomonidan boshqariladi.

Boshqaruv kengashining asosiy vazifalari Toshkent aglomeratsiyasi rivojlanishining strategik yo'nalishlarini belgilash, moliyalashtirishda resurslarni oqilona taqsimlash, Boshqaruv raisini tayinlash hamda amalga oshirilayotgan faoliyat ustidan umumiy nazoratni ta'minlashdan iborat. Boshqaruv raisi esa joriy boshqaruvni amalga oshirish, departamentlar faoliyatini muvofiqlashtirish, strategik rejalarni hayotga tatbiq etish va Boshqaruv kengashiga hisobot berish vazifalarini bajaradi (1-rasm).



1-rasm. Toshkent aglomeratsiyasining yagona boshqaruv organi konseptual tuzilmasi

Aglomeratsiya boshqaruv organi to'rtta departamentdan iborat bo'lishi hamda ushbu departamentlarning vakolatlari va vazifalari aniq belgilanishi lozim.

1. Transportni rivojlantirish departamentining asosiy vazifalari aglomeratsiya uchun yagona transport strategiyasini ishlab chiqish, jamoat transporti (metro, avtobus, shahar elektr poyezdlari) marshrutlarini optimallashtirish, yagona chipta tizimini joriy etish, transport-xab markazlari (transport hubs) va avtoturargohlarni rejalashtirish, shuningdek, velosiped va piyodalar infratuzilmasini rivojlantirishdan iborat. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda departamentga marshrutlarni tasdiqlash, tarif siyosatini belgilash hamda transport kompaniyalari uchun yagona standartlarni joriy etish vakolatlarini berish maqsadga muvofiqdir.

2. Ekologiya va yashil rivojlanish departamenti aglomeratsiyaning yagona ekologik xaritasi va standartlarini ishlab chiqish, yashil hududlar, parklar hamda suv havzalarini muhofaza qilish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini muvofiqlashtirish, havoning ifloslanishini monitoring qilish va uni kamaytirish choralarini ko'rish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Mazkur departament qurilish loyihalariga ekologik ruxsatnomalar berish va sanoat korxonalariga ekologik talablar qo'yish vakolatlari asosida faoliyat yuritadi.

3. Strategik rejalashtirish va qurilish departamentining asosiy vazifalari sifatida aglomeratsiyaning uzoq muddatli strategik (20–30 yillik) Bosh rejasini ishlab chiqish va uning ijrosini nazorat qilish, yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, ijtimoiy, muhandislik va yo'l infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Shuningdek, aglomeratsiya miqyosidagi yirik qurilish loyihalarini tasdiqlash hamda me'moriy-rejalashtirish talablarini belgilash ushbu departament vakolatiga kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

4. Investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish departamenti aglomeratsiyaning yagona investitsion brendi va strategiyasini ishlab chiqish, hududning iqtisodiy ixtisoslashuvini (klasterlar) belgilash, investorlar uchun "yagona darcha" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi. Departamentga investitsion loyihalarni tasdiqlash jarayonida ishtirok etish, investorlarga yer ajratish va imtiyozlar berish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish vakolatlarini taqdim etish maqsadga muvofiqdir.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Toshkent aglomeratsiyasining yagona boshqaruv tuzilmasini shakllantirish aholi uchun qulay va o'zaro integratsiyalashgan transport tizimini yaratish, aglomeratsiyaning ekologik holatini yaxshilash, sog'lom yashash muhitini ta'minlash, shaharsozlik faoliyatini tartibga solish, infratuzilma masalalarini tizimli hal etish, hududning investitsion jozibadorligini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek, resurslardan (yer, byudjet, infratuzilma) samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Yagona aglomeratsiya boshqaruvini tashkil etish shunchaki yangi idora tuzish emas, balki boshqaruv falsafasini yangilashdir. Ushbu yondashuv Toshkent aglomeratsiyasining kelajakdagi rivojlanishini barqaror, tizimli va aholi manfaatlariga yo'naltirilgan holda boshqarish imkonini beradigan muhim strategik qadam hisoblanadi. Mazkur konseptual tuzilma kelgusida mukammal normativ-huquqiy baza va samarali amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brown, J. *London's Mayor at 20: Governing a Global City in the 21st Century*. London: Biteback Publishing, 2020. — 384 p.
2. Вучик, В. Р. *Транспорт в городах, удобных для жизни* [Текст] / В. Р. Вучик; пер. с англ. А. Калинина; под науч. ред. М. Блинкина. — Москва: Территория будущего, 2011. — 574 с.
3. Рыжков, А. Ю. *Город и перевозчики: история транспортных реформ* [Текст] / А. Ю. Рыжков; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». — Москва: Изд. дом Высшей школы экономики, 2024. — 464 с.
4. Бирюков, В. В. *Пассажирские перевозки в городах и агломерациях*. — Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2020. — 368 с.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**







+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)